
QONUNLAR â€“ ADOLAT MANBAI

Fargâ€™ona davlat universiteti katta majlislar zalida Oâ€™zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari ishtirokida davra suhbatini oâ€™tkazildi. Unda tadbirkorlar, nodavlat-notijorat tashkilotlari, fuqarolarning oâ€™zini-oâ€™zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boâ€™yicha hududiy Kengash aâ€™zolari, universitet talaba va murabbiylari hamda OAV vakillari qatnashdi.

Davra suhbatini viloyat hokimining oâ€™rinbosari Ilhomjon Nosirov ochdi va olib bordi.

Anjumanda soâ€™zga chiqqan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Bahromjon Obidjonov fuqarolarning oâ€™zini oâ€™zi boshqarish organlari tomonidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning oâ€™ziga xos xususiyatlari mavzusida maâ€™ruza qildi. Deputat oâ€™z nutqida parlamentda muhokamaga qoâ€™yilayotgan â€œjamoatchilik nazorati toâ€™gâ€™risidaâ€gi yangi qonun loyihasi haqida batafsil tushuncha berdi.

â€“ Qonun loyihasi 21 moddadan iborat boâ€™lib, u fuqarolarning davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish orqali jamiyat va davlat ishlari borasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga soladi, â€“ dedi Bahromjon Obidjonov. â€“ Bunday nazoratni amalga oshirish 4 ta subâ€™ekt tomonidan olib boriladi deb baholanmoqda. Yaâ€™ni mamlakatimiz fuqarolari, fuqarolarning oâ€™zini oâ€™zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari jamoatchilik nazoratini yuritadilar.

Davra suhbatida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Sherzod Rahimov yaqinda qabul qilingan â€œOâ€™zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subâ€™ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish boâ€™yicha vakil toâ€™gâ€™risidaâ€gi qonunning mazmun-mohiyati haqida soâ€™z yuritdi.

29 moddadan iborat mazkur qonunda ham tadbirkorlarning faoliyatiga noqonuniy aralashuvlarning oldini olish, ularning huquqlarini himoya qilish boâ€™yicha vakil, yaâ€™ni biznes-ombudsman va uni lavozimga tayinlash, lavozimidan ozod etish, uning asosiy vazifalari, huquq va majburiyatlari aks etgan.

2017-09-28 11:17:17